

TAFSIR ILMING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING AHAMIYATI***Abdumalikova Muslima****O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi**Telefon raqami: 97 771 39 82****Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova****Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsent v.b.*

Annotatsiya: Maqlolada Qur'oni karimning tafsiri va uning tadrijiy bosqichlari to'g'risida gap boradi. Boshqacha qilib aytganda, tafsir ilmini o'rganish, tafsir ilmiga ulamolar tomonidan berilgan tariflar va tafsir ilmiga qachondan extiyoj tushganligi to'g'risida ma'lumotlar berilib o'tiladi.

Kalit so'z: Tafsir, tarjima, Qur'on, sura, mutolaa, ilm, nabiy, rosul, ma'nolarning bayoni.

Qur'on Islom dinining muqaddas kitobi, musulmonlar uchun dinlariga amal qilishda asosiy manba va hayotiy dastur hisoblanadi. Qur'oni o'rganish va uning ustida tadqiqotlar o'tkazish musulmonlar uchun ham, o'zga din vakillari uchun ham birdek manfaatlidir. Bunda musulmon iymonini mustahkamlaydi, ilmini hayotga tadbiq qiladi. Shuningdek, Qur'oni quyidagi sabablar bilan o'rganayotganlar uchun ham ko'p foyda bor:

1. Islomni yaxshiroq tushunish uchun: Qur'on islomning markaziy matni, yagona ilohiy kitobidir va uni o'rganish islom e'tiqodi, amaliyotlari va tarixini o'rganishga yordam beradi.

2. Arab adabiyotini o'rganish uchun: Qur'on arab tilining filologik, adabiy qudratini kashf etuvchi manba ham hisoblanadi. Hatto arab bo'lmaganlar uchun ham bunda ko'p manfaat bor. Qur'oni o'rganish musulmon bo'lmaganlarga arab tilining go'zalligi, balog'ati va lug'aviy kuchini anglashga yordam beradi.

3. Dinlarni qiyoslash uchun: Qur'oni o'rganish musulmon bo'lmaganlarga islomni o'z dinlari yoki umuman boshqa dinlar bilan qanday solishtirishi haqida ko'proq ma'lumot olishga yordam beradi.

Albatta, Qur'oni to'g'ri anglash uchun tarjima bilan birga uning tafsiri bilan ham tanishish zarur. Tafsir-Qur'onning ma'nolarini chuqur tushunishda yordamchi, oyatlardan ko'zlangan maqsad, ulardan olinadigan hukmlardan tortib, ba'zi hikmatlargacha ochib beradigan sharhdir. Ma'lumki, Qur'oni barcha ham birdek o'qib tushunish ko'nikmasiga ega emas. Qur'oni to'g'ri fahmlash, uni to'g'ri talqinda tushunish uchun savodxonlikni o'zi yetarli bo'lmay, arab tilini puxta bilishga qo'shimcha ravishda aqida va fiqh kabi qator ilmlardan xabardor bo'lish ham

talab qilinadi. Tafsirsiz yuqorida sanab o‘tilgan mavzularda anglashilmovchiliklar yuzaga keladi, kishini toyilishga, hidoyatdan zalolatga ketib qolishiga sabab bo‘ladi. Bunga islomda adashgan toifalarning yo‘ldan og‘ishiga ularning Qur’ondagi oyatlarni o‘zlaricha, noto‘g‘ri talqin qilishlari sabab bo‘lgani yaqqol misoldir.

Tafsir (تفسیر) - ko‘pligi tafosir (تفسیر) so‘zi fasara fe’lining o‘zagidan olingan bo‘lib, fasara - bayon qilish, yoritish, ochish, sharhlash, tafsir esa, yopiq narsani ochish, mushkul lafz maqsadini yoritish kabi ma’nolarni beradi. Shundan kelib chiqib, mufassir so‘zi "Qur’on oyatlarini sharhlovchi" mazmunini ifoda etadi. Tafsir ilmi haqida Imom az-Zarkashiy (vaf. 1393 h.y.): «Tafsir shunday ilmki, u bilan Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ga nozil bo‘lgan Alloh kitobi tushuniladi, ma’nolari bayon etiladi va undan hukm va hikmatlar olinadi» deydi. Shubha yo‘qki, inson ushbu narsalarni o‘z bilimi, toqati, fahmi doirasida tushunadi. Umuman olganda, «tafsir» Qur’ondan ko‘zlangan maqsadni inson o‘z aqli darajasida tushunib, boshqalarga ham tushuntirib berishi, deb ta’riflangan. [1:5]

Imom Moturidiy tafsirga shunday ta’rif bergenlar: “Tafsir - bu so‘zning ma’nosini qat’iy mana shu deyish va Alloh o‘sha so‘zdan mana shuni nazarda tutgan deb, guvohlik berishdir. Agar bunga dalili bo‘lsa u holda so‘zi to‘g‘ri, agar unday bo‘lmasa, unda faqat o‘zining ra’yi bilan tafsir qilgan bo‘ladi. Bu man etilgan. Ta’vil esa, biror so‘zning taxminiy ma’nosini qat’iy deb aytmay va Allohnинг nazarda tutgani mana shu, deb guvohlik bermay o‘sha ma’noni boshqa ma’nolaridan ustun qilishdir”. Ba’zi olimlar esa bu ikkisini bir ilm deb sanaganlar. [3:7]

Tafsir ilmining istilohlari borasida turli fikrlar bo‘lgani kabi ushbu ilm doirasida o‘rganilgan mavzularda ham o‘tmishda va hozirda turlilikni kuzatish mumkin. Masalan, ba’zi olimlar tafsirning ayrim mavzularini tahlil qilgan bo‘lsalar, boshqalari Qur’on ilmlariga oid ko‘pgina masalalarga to‘xtalgan yoki tafsir qoidalarini ham yoritganlar. Shu tarzda olimning maqsadidan kelib chiqib, sohaga oid turli darajadagi kitoblar yozilgan. Jumladan, zamonaviy mufassir olim Fahd ar-Rumiyy «Buhus fi usulit tafsir va manohijihi» kitobida tafsir ilmining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, tadvin (kitoblar yozilish) davri, Qur’ondagi e’roblar, g‘arib va kamdan-kam uchraydigan so‘zlar, mufassir bilishi zarur bo‘lgan ilmlar, tafsir usuli va ko‘rinishlari kabilarga to‘xtalgan.

Tafsir ilk vahiy nozil bo‘lgan davrdan beri mavjud bo‘lgan, ammo alohida ilm sifatida rivojlanmagan. U davrda bir-necha sabablarga ko‘ra bunga ehtiyoj bo‘lмаган: birinchidan, ilk risolat davrida vahiy hali davom etib turgan va oyatlarni sharhlash uchun payg‘ambar (s.a.v)ning o‘zlaridan bevostida bilib olish imkonii mavjud bo‘lgan. Qolaversa, bir oyatni keyingi nozil bo‘ladigan oyat sharhlashi, uni ochiq bayon qilishi ehtimoli ham bor edi. Ikkinchidan, sahabalar arab tili, uning balog‘atini his qila olganlar va aksar oyatlarning ma’nosini ularga ma’lum bo‘lgan. Ba’zi istisnoli holatlardagina, ya’ni oyatlarda noyob, iste’molda kam qo’llanilgan

so‘zlarning ishlatalishi, nozik uslub bilan misollar yoki hukmlar keltirilishi kabi sabablar tufayli ayrim oyatlar nozil bolganida ba’zi sahabalar gap nima haqida ketayotganini boshida anglamagan holatlar ham bo‘lgan. Bunga misol sifatida:

وَفَاكِهَةُ وَأَبَا

“Va meva-chevayu o‘t o‘lanlarni “ (Abasa surasi, 31-oyat) degan qavlni olaylik. U ushbu oyatdan boshqa joyda ishlatingani kam uchraydi. Hazrati Umar roziyallohu anhudek zot ham ushbu oyatni tilovat qilib turib, “Fakihatan” ni-ku bilamiz, “Abban” nima degani?” y deb hayron bolganlar. Xuddi shunga o‘xshash holat Hazrat Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuda ham bolgan”. [2:361]

Umuman, Payg‘ambar alayhissalom ehtiyoj paydo bo‘lgan paytda Qur’ondagi maxfiy joylarni vaqt soati bilan yoritib bergenlar, undagi har bir kalimani bayon qilamaganlar. Ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan, foydasi, ahamiyati bo‘lmagan narsalarni esa yoritmaganlar. Sahobalar tushunmagan masalalarini savol berib izohini bilib borganlar. Ma’lumki, Qur’ondagi zohiriylar ma’nolar tushunarli bo‘lgani bilan, uning mufassal botiniy ma’nolarini faqat arab tilini bilish bilan anglash mumkin emas. Uni anglash uchun hatto sahabalar munozara va bahslar olib borganlar, ba’zi mushkilotlarni tushunishda Payg‘ambar (s.a.v.)ga murojaatlar qilganlar. Ammo, Qur’on ma’nolarini tushunishda sahabalarning fikrlash darajalari ham, o‘z tillari hikmatlarini ajrata bilish qobiliyatları ham, Payg‘ambar (s.a.v.) bilan munosabatda bo‘lib, oyatlarning sababi nuzulini idrok qilish muddatlari ham turlicha bo‘lgan. Buning ustiga sahabalarning hammalari ham olimlar emas, johiliyat davrining “ummiy” tijoratchilari ekanligini, Payg‘ambar (s.a.v.) singari ularga Qur’on ilmini o‘rgatishni Alloh o‘z zimmasiga olmaganini nazarda tutsak, ularning barchasi ham Qur’on ma’nolarini to‘liq tushunmaganlariga amin bo‘lamiz. Ibn Qutayba bu haqda shunday deydi: “Sahobalar g‘arib kalimalar, mutashobih oyatlarning ma’nolarini mukammal bilmaganlar, balki ularning orasida bir-birlaridan fazilatda, fahm-farosatda ortiqroqlari bo‘lgan” [4:136] Bir so‘z bilan, sahabalar oyatlarni o‘zlaridan kelib chiqib turlicha anglaganlar, tushunmagan joylarini boshqa, ilmliroq sahabalardan so‘rab bilganlar yoki Payg‘ambar alayhissalomga murojaat qilganlar. Yuqorida sanalgan omillar tufayli sahabalar tafsiri boshqa tafsirlardan ajralib turadi. Sahobalar tafsirlari ixcham bo‘lgan. Ular arab tilini yaxshi bilganliklari sababli ortiqcha sharhlarning yo‘qligi; tafsirlarining turli bid’atlar, xato qarashlardan xoliligi; ixtiloflarning kamligi; isroiliyotga kam e’tibor berilgani ham uni ajratib turuvchi jihatlaridir. Yana boshqa farqlar esa o‘sha davrda yozish amaliyoti kamligi sabab tafsirlarning asosan og‘izaki rivoyatlar bilan bog‘liqligi; eng yaxshi tafsir uslubining tanlangani, ya’ni sahabalar tafsirlarida avvalambor, Qur’oni Qur’on bilan, keyin hadislar, keyin ulug‘ sahabalar so‘zleri bilan tafsir qilish yondashuvining mavjudligi kabi xususiyatlaarda namoyon bo‘ladi.

Tafsirga ahamiyat qaratilishi bosqichma-bosqich sahobiylar davrida, dastlab Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan qolgan hadislar ko‘rinishida yoki ularning tarkibida kelib, muhaddislar soni ortgach va islom ilmlariga, xossatan, hadis ilmiga doir asarlar ta’lif qilina boshlagach avval ularning ma’lum boblarida aks etgan. Bunda Movarounnahrlik muhaddislarning hissasi beqiyos. Ana shunday hadis to‘plamlari sirasiga Imom al-Buxoriy(810-870)ning “Al-jomi’ as-sahih” asarini ham kiritish mumkin. Ushbu asarning uchdan biri tafsirga bag‘ishlangan. Shu bilan bir qatorda u kishining oyatlar bilan boshlanuvchi kitoblar soni 18 tani tashkil etadi. Aslida, hadis asarlarida mustaqil tafsir bo‘limlarini ajratish odatini Imom Buxoriy boshlab bergen. U bilan bir davrda yashagan Imom Muslim “Sahih”ida “Tafsir” nomli yetti bobdan iborat kichkina bir bo‘lim ajratgan. Termiziy “Sunan”ida, Nasoiy ham “as-Sunan al-kubro”sida tafsir bo‘limlarini ochganlar[5]. Hadis asarlaridagi tafsir bo‘limlarida oyatlar bob nomi shaklida zikr qilingan, ketidan oyatlarga aloqasi bor deb bilingan hadislar naql qilingan. Bu shaklda tartiblangan boblardan tafsir bo‘limlari tashkil topgan. X hijriy asrdan boshlabgina tafsir yakka fan sifatida hadisdan ajralib chiqdi va unga to‘liq kitoblar shu asrdan yozila boshlandi.

Ta’kidlash joizki, sahabalar davrida ham tafsir alohida fan sifatida o‘rganilmagan. Biroq ushbu paytda Makka, Madina, Kufa, Basra va Shom kabi tafsir mакtablarining zaminlari shakllana boshlangan edi. Tobeinlar davrida ushbu maktablar asosida tafsir alohida fanga aylandi. Said ibn Jubayr, Mujohid ibn Jabr, Ikrima, Zayd ibn Aslam, Alqama ibn Qays, Omir ash-Sha’biy kabi tobeinlar tafsir ilmi shakllanishida katta o‘rin egallaganlar. Bu davrda aksar oyatlarni ijтиhod asosida tafsir qilish keng tarqaldi. Chunki arab bo‘lmaganlar orasida islom yoyildi va bu olimlardan ayrim juz’iy masalalarda ijтиhod qilishlarini taqozo etgan.

Tobeinlar davridan keyin “tadvin davri”da tafsir ilmi jadal rivojlandi. Tafsir yo‘nalishlariga doir mashhur asarlar yozilishi, ulug‘ mufassir olimlar yetishib chiqishi, tafsir turlari ko‘payishi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Shulardan eng e’timodga moliklari sifatida ilk tafsir kitoblaridan Ibn Jarir at-Tabariyning (224-311/839-923) «Al-Jome al-bayon fi tafsir al-Qur’on» («Qur’on tafsiridagi sharhlarni jamlovchi»), Abul Lays as-Samarqandiyning (vaf.373/983-4) «Bahr al-ulum» («Ilmlar dengizi»), Mahmud az-Zamaxshariyning “al-Kashshof”, Abu Mansur Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” asarlarini misol qilish mumkin. Ulardan keyin Abu Is’hoq Saolibiyning (vaf.427/1316) “al-Kashf val bayon “at tafsir al-Qur’on”. Abu Muhammad Bag‘aviyning (vaf.516/1122) “Maolim at-tanzil”, Ibn Atiyya Andalusiyning (vaf. 546/1151) “al-Bahr al-vajiz fi tafsir al-Kitab al-aziz”, Ibn Kasir (700/1300-774/1372)ning «Tafsir al-Qur’on al-azim» («Buyuk Qur’onning tafsiri»), Abdurahmon Saolibiyning (vaf.876/1472) “al-Javohir al-hison fi tafsir al-Qur’on”, Jaloluddin as-Suyutiyning (vaf.911/1506) “ad-Durul mansur fi-t-tafsiri bil-ma’sur” kabilarni keltirish mumkin.[1:23]

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tafsir ilmi ilk islom rivojlanishi davrida mavjud bo‘lgan bo‘lib, sahabalar, ulardan keyingi tobeinlar davrida bu ilmga yana ham e’tibor kuchayib, unga kitoblar tasnif etish boshlandi. Tafsir ilmi Qur’oni Karim oyatlaridan Alloh taolo iroda qilgan ma’nolarni tushunishlik uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan yo‘ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. D.R.Maxsudov. Tafsir uslublari. darslik /D.Maxsudov, 2021. “Ozbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.
2. Sh-96 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Quron ilmlari, Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2019. 504 b.
3. Tafsir ilmiga kirish. D.Maxsudov . “Qaqnus media” nashriyoti, 2019.
4. Rahmatulloh qori Obidov. Qur’on va tafsir ilmlari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003.
5. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/imom-buxoriyning-tafsir-ilmiga-qoshgan-hissasi>